



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Saburova Manzura Shukurbayevna

Nukus davlat pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-kurs magistranti
E-mail: manzura.saburova@bk.ru
tel: +99897. 788-40-60

ULUG'BEK HAMDAM SHE'RIYATIDA RUHIY KECHINMA VA BADIY IFODA

Annotatsiya: maqolada she'riyatda mavzu rang-barangligi, olam va odam munosabatlarining badiiy talqin qilinishi, shakl va mazmun mutanosibligi, tasvir va ifoda uyg'unligi masalalari Ulug'bek Hamdam ijodi misolida ilmiy tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mavzu, lirika, obraz, badiiy ifoda, ijodiy individuallik, ramziy-falsafiy talqin.

ДУХОВНЫЙ ОПЫТ И ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ В ПОЭЗИИ УЛУГБЕКА ХАМДАМА

Аннотация: в статье на примере творчества Улугбека Хамдама научно анализируется многообразие тем в поэзии, художественная интерпретация мира и человеческих отношений, соразмерность формы и содержания, гармония образа и выражения.

Ключевые слова: тема, лирика, образ, художественное выражение, творческая индивидуальность, символично-философская интерпретация.

SPIRITUAL EXPERIENCE AND ARTISTIC EXPRESSION IN ULUGBEK KHAMDAM'S POETRY

Annotation: Using the example of the work of Ulugbek Hamdam, the article scientifically analyzes the variety of themes in poetry, the artistic interpretation of the world and human relations, the proportionality of form and content, the harmony of image and expression.

Keywords: theme, lyrics, image, artistic expression, creative individuality, symbolic and philosophical interpretation.

Kirish (Introduction). Hozirgi davrda adabiyotimizning barcha janrlarida kuzatilayotganidek, she'riyatda ham shakl va mazmun jihatdan takomillashish hamda yangilanishlar ro'y bermoqda. Bu jarayon, asosan, inson va uning taqdiri, olam bilan munosabati masalalari badiiy talqinida yorqin namoyon bo'ladi. Mazkur masalalarni badiiy tadqiq etishda turli xil she'riy shakllar, ifoda usullari vujudga kelmoqda. Shoir Ulug'bek Hamdam she'riyati o'zining sermazmunligi, fikriy teranligi, badiiy ifodaning o'ziga xosligi bilan adabiyot ixlosmandlarini o'ziga jalb etadi. Shoir she'riyatida qaysi mavzu qalamga olinmasin, ularning barchasida kitobxonni chuqur mushohadaga chorlaydigan o'ziga xos badiiy topilmalar yaratishga erishadi. Lirika tabiati xususida mulohaza bildirar ekan, Jamol Kamol shunday ta'rif beradi: "Lirika inson o'z shaxsini tanigan, o'zini shaxs sifatida anglagan, o'zini olam ichra bir odam deb bilgan va tashqi, ob'ektiv olamga o'z shaxsi olamining oynalari orqali qaragan sharoitda paydo bo'ladi. Inson o'z shaxsini olam bilan qiyoslaydi, goho unga qarama-qarshi qo'yadi, goho tashqi olam bilan tutash va payvasta ekanligini qayd etadi" [1:186-187]. Shu ma'noda, Ulug'bek Hamdam she'rlarida inson fe'lida mavjud fazilat va illatlar o'z ifodasini topgan holda inson buyuk yaratuvchi, cheksiz idrok sohibi, shu bilan birga mazkur fazilatlarining tom ma'nodagi aksini keltirib chiqaruvchi shavqatsiz qudrat egasi ekanligi badiiy tadqiq etiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Zamonaviy o'zbek she'riyatining turli qirralari, xususan, badiiy psixologizm, obraz va ritm munosabati, hayotni poetik talqin etish taomillari, badiiy xususiyatlari, ijodkor shaxsiyati va lirik qahramon, xalqona poetik tafakkur, uslubiy izlanishlar, modern she'riyat poetikasi, she'riy turkum tabiati kabi masalalar haqida adabiyotshunosligimizda monografik tadqiqotlar, ilmiy maqolalar yaratildi.

Adabiyotshunoslik va badiiy ijod borasida sermahsul ijodkor – Ulug'bek Hamdam ijodi bu borada alohida e'tirofga loyiq. Ma'lumki, U.Hamdamning asarlari keng jamoatchilik nazariga tushdi va nasriy asarlari bir qator ilmiy tadqiqotlarga obyekt bo'ldi. Lekin ijodkorning she'rlari alohida tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Zero, U.Hamdam nafaqat yetuk adabiyotshunos olim, mohir nosir, balki dardchil shoirdir. Uning she'rlarida inson va jamiyat munosabatlari turli xil mavzu va ruhiy holatlarda mahorat bilan badiiy talqin etiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ulug'bek Hamdam she'riyatida intellektual talqin nihoyatda teran va kuchli. Shoir she'rlarida falsafiy talqin orqali inson hayotining butun murakkabligi va uning mazmun mohiyati badiiy tadqiq etiladi. Shu bilan birga insonning olamga qanday munosabatda bo'lishi lozimligi va

insoniy burchi turli ko‘rinishlarda talqin etiladi. Shoir she‘rlarida inson ruhiyati, his-tuyg‘ularini turli xil ziddiyatlari bilan aks ettirishga alohida e‘tibor qaratadi va ularni turshi xil shakllarda ifoda qiladi. She‘riyat ijodkor qalb kechinmalari mahsuli ekan, unda inson ruhiyatining rangin qirralari namoyon bo‘ladi. Shuningdek, unda shoir xususiy tafsilotlarni umumiylik yoki umumiylik mohiyatiga ega voqelik va jarayonlarga xususiy dard sifatida munosabat bildiradi. Zero, “Adabiyot va san‘at hamisha insonni o‘zining fe‘l-faoliyati, hayotiy a‘molini tahlil qilish, shuningdek, tabiat va jamiyat bilan murosada yashash kabi masalalar yuzasidan mulohaza yuritishga undaydi. Zero, har bir inson alohida bir olam. Shu ma‘noda, olam sir-sinoatlari cheksiz bo‘lgani kabi odamning ham o‘ziga xos ichki dunyosini mukammal o‘rganish imkonsiz narsa. Har bir tarixiy-ijtimoiy davrda dunyoqarashlar o‘zgarganidek, insonga bo‘lgan qarash va uning talqin xususiyatlari ham o‘zgaradi. Insonning ijtimoiy voqelikka munosabati ham zamonlar o‘tishi bilan yangilanadi” [3:28]. Shoirning “Eski dunyo va yangi men” to‘plamidagi she‘rlar “An‘anaga ergashib”, “Xalq ohanglari yo‘lida”, “Modernistik izlanishlar” deb nomlangan fasllarga bo‘lingan. Shuningdek, to‘plamdan “Yangi inson” dostoni va Jaloliddin Rumi, Masset, Yevgeniy Yevtushenko ijodidan tarjimalar joy olgan.

To‘plamdagi “Lahza” she‘rida shoir inson hayotidagi muayyan lahzaning ahamiyati va uning mohiyatini shunday tasvirlaydi:

Shu lahza,
bir lahza
so‘ng lahza...
Hammasini hal etib ketgay.
O‘tmish, Bugun, Kelajak uning
Quchog‘ida murodga yetgay.
Nechun dema, ey g‘ofil banda,
Lahza – sening izmingda ot bir.
Jilovini burasang qayga –
O‘sha yerda bo‘lursan hozir! [4:70].

Ko‘rinadiki, shoir ifodalamoqchi bo‘lgan badiiy g‘oyani aks ettirishda o‘ziga xos shaklga murojaat qiladi va bu orqali mazmun quyuqligiga erishadi. Adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov ta‘kidlaganidek, “Borliqdagi barcha voqea-hodisalar, narsa va tushunchalar mazmun va shakl birligida mavjuddirlar. Binobarin, muayyan fikr, g‘oya, voqea, faqat shakl orqaligina reallashadi va yashaydi. Chunki, mazmunsiz shakl bo‘lmaganidek, shaklsiz mazmunning o‘zi ham yo‘q...” [2:92]. She‘rda ifodalangan mazmun-mohiyatdan anglashiladiki, inson umrida o‘tgan har bir lahza bebaho ne‘matdir.

Bas!

Lahza

bir lahza,

shu lahza

Hammasini hal etib ketgay...

Shu lahzaning qo‘ynida inson

Yo murodga yetgay yo bitgay... [4:70].

Ahamiyat bersak, U.Hamdamning mazkur she‘rida mahzun o‘ychanlik, mulohazakorlik ancha teran. Unda inson psixologiyasini jamiyat, tabiat voqea-hodisalari bilan hamohanglikda badiiy-falsafiy tadqiq etish seziladi. She‘rda ta‘kidlangan lahzaning mohiyati “O‘tmish, Bugun, Kelajak”ka ta‘siri o‘ziga xos tarzda yorqin aks ettirilgan bo‘lib, kitobxon she‘rdagi badiiy ifodadan o‘ziga tegishli xulosalar chiqaradi.

To‘plamdagi “Hayot sahnasida” she‘ri ham mazmuniy jihatdan yuqoridagi she‘rga hamohanglik kasb etadi. Unda ham inson umri va uning mohiyati haqidagi falsafiy mushohadalar badiiy talqin etiladi.

Uyimdan chiqaman har kuni, har tong,

Boshimda mingta o‘y, dilda ming istak.

Ammo bilmak qayda: qay biri qay on

Meni baxtli etar yo aylar halak?.. [4:73].

Ta‘kidlash lozimki, hayotiy voqelikda turli xil yovuzliklar aniq bo‘y ko‘rsatib turadi, ularni haqqoniy tasvirlash uchun dunyoning fojeiy ruhini anglash lozim. Shoirning o‘zi ta‘kidlaganidek, “Inson mohiyati turli davrlar she‘riyatida turlicha jilo beradi. Chunki, har bir davr alohida spesifikaga ega ijtimoiy-psixologik muhit sifatida insonga – shoirga o‘z ta‘sirini o‘tkazadi va bu ta‘sir shoir orqali she‘rga ko‘chadi. Shu tariqa she‘riyat shoir tomonidan taklif etilgan davr siyratini aks ettiruvchi ko‘zguga aylanadi. Zero, shoir shaxsini muayyan iqlimli davr yoki davrlar yetiltiradi. Shunga ko‘ra, uning she‘riyati o‘zi mansub bo‘lgan davr (yoki davrlar) ruhi bilan to‘yingandir. Shoir shaxsi ma‘naviy jihatdan qanchalar yuksalib borsa, she‘rning ham darajasi shunga yarasha ma‘nan o‘sib boradi” [5:13].

Ulug‘bek Hamdam lirikasida rang-barang she‘riy shakllar orqali hayotni, inson umri va uning qismatini ifodalovchi, qadr-qimmatini ulug‘lovchi bir qancha she‘rlar yaratildi. Ularda shoir har xil mavzu va ohanglarda ijodiy o‘ziga xosligini namoyish etib, yangi estetik tamoyillarni vujudga keltirdi. Shoir she‘riyatida so‘z va tuyg‘u, ruhiy kechinma mutanosibliigi o‘ziga xos yaxlitlikni tashkil etadi. Undagi she‘riy

shakl, tasviriy vositalar uyg'unligi o'quvchiga mavjud voqelik va ma'noni anglashi uchun aniq tasavvur beradi.

Bu dunyonda do'zaxni ko'rdim,
U dunyoda jannat bormikan?
Tug'ildim-u ayrildim, so'rdim:
Yorni qayta topmoq bormikan?.. [4:89].

E'tibor bersak, mazkur satrlarda inson umrining asl mohiyati, hayot unga berilgan bir ne'mat ekanligi, olam va odam munosabatlarining ziddiyatli masalalari badiiy tadqiq etiladi. Inson barkamolligini shakllantirishda badiiy adabiyotning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Umumbashariyatga oid qadriyatlarni ulug'lagan badiiy adabiyot faqat ma'naviyat uchungina emas, balki hayotning barcha jabhalari uchun xizmat qiladi. Ta'kidlash kerakki, "Har bir lirik janr badiiy ijod olamida o'zining g'oyaviy-badiiy vazifasi bilan tug'iladi. Aks holda janr xilma-xilligi to'g'risida gap bo'lishi mumkin emas. Odatda, she'r hayotiy zaruriyat, ma'naviy-ruhiy ehtiyojdan dunyoga keladi. Janr kategoriyasi ana shu ehtiyoj va zaruratning turli tarzda shakllanishi, shaklga munosib mazmun, mazmunga munosib shakl holda ko'rinishidir" [6:287]. Shu ma'noda, yuqoridagi she'rda har bir so'z, jumla badiiy matn uyg'unligi tizimli tarzda hayotiy mohiyatni asoslaydi. Shuningdek, matn timsolli nutqiy butunlik tarzida aks etadi. Unda so'zga yuklangan zalvor va ma'no ohangdorlik kasb etadi. Uning she'rlarida inson hayot atalmish bebaho ne'matning o'ziga xosligi, undan ko'zlangan, umid qilingan maqsadning cheksizligi, lekin hayot insonni o'z tartib-qoidalari izniga solishi anglashiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/R ecommendations). Ulug'bek Hamdam she'rlari umuminsoniy muammolar talqini, ularni badiiy ifodalashdagi turli xil badiiy shakllar hamda ifoda usullari bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Shoir o'zining sermazmun she'rlarining voqealar tafsilotida shakl va mazmun mutanosibligini ta'minlashda badiiy mukammallikka erishadi. Shoir she'riyatida insonning o'zini anglashi, uning fazilat-u illatlari, taqdiri, umuman, butun murakkabligi badiiy talqin qilinadi. Ulug'bek Hamdam o'z she'rlaridagi fojeiy ohang orqali hayotning shafqatsizligi oldida insonni esankiramaslikka da'vat etayotgandek tuyuladi. Zero, inson hayotda doimo jamiyatdagi va o'zining fe'li-faoliyatidagi illatlar bilan kurashib yashaydi. Kurashchanlik salohiyati bilan uni yengadi, ba'zan o'z ojizligi sababli unga qurbon bo'lishi shoir ijodida hayotiy asoslar vositasida badiiy talqin etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (References).

1. Jamol Kamol. She'r san'ati. –T.: Yangi asr avlodi, 2018.
2. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T., 2004.

3. Matyakupov S. She'riyatda dialog va uning talqiniga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 2020. – № 4.
4. Ulug'bek Hamdam. Eski dunyo va yangi men. – T.: Yangi asr avlodi, 2018.
5. Xamdamov U. XX asr o'zbek she'riyati badiiy tafakkur tadrijining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Filologiya fanlarni doktori dissertatsiyasi (DSc) avtoreferati. – T., 2017.
6. Haqqulov I. Ijod iqlimi. – T.: Fan, 2009.